

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



2018 -yil "18" 08

Nutq malakalari integratsiyasi

FANDASTURI

Bilim sohasi: 100 000 - Gumanitar  
Ta'lif sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta'lif yo'naliishi: 5111400 - Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili va adabiyoti)

Toshkent – 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" 08 dagi 744-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

O.N.Yusupov

Nizomiy nomidagi TDPU  
"Ingliz tili amaliy kursi" kafedrasи  
mudiri, dotsent

D.X.Saydazimova

Nizomiy nomidagi TDPU  
"Ingliz tili amaliy kursi" kafedrasи  
katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

H.A.Mamatqulov

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, O'zDJTU, Ingliz tili integrallashgan kursi kafedrasи №1 mudiri

N.Ismatullaeva

O'zDJTU akademik litseyi, Xorijiy tillar kafedrasи mudiri

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil 28 06 dagi 11 -sonli bayonnomasi).

## **I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni**

Nutq malakalari integratsiyasi fani lingvistik kurs hisoblanadi hamda “Nutq malakalari integratsiyasi” va “Og’zaki nutq amaliyoti” (tinglash va gapirish) modullarini o’z ichiga oladi. Mazkur kurs til o’rganishning to’rt ko’nikmasi: so’zlashish, tinglab tushunish, o’qish va yozish bo’yicha ko’nikmalarni integrallashgan holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur modulni o’qitishda og’zaki nutq amaliyotiga alohida urg’ u beriladi. Modul yakunida talabalar Yevropa Kengashining “Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o’rganish, o’qitish va baholash” to’g’risidagi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlari (CEFR) bo’yicha o’rgangan chet tillarini 1-4 semestrlar bo’yicha bosqichma-bosqich B1 dan B2 darajagacha amalda qo’llay olishlari nazarda tutiladi.

Mazkur fan ikki yil davomida ikki qismga: “Nutq malakalari integratsiyasi” va “Og’zaki nutq amaliyoti” ga ajratilgan holda o’rgatiladi. O’quv rejaning xorijiy tilni o’qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish, til aspektlari amaliyoti metodika, mamlakatshunoslikka oid kurslari va o’rganilayotgan chet tilining nazariy kurslari - umumiylashunoslik, stilistika va matn tahlili, nazariy fonetika, qiyosiy tipologiya, nazariy grammatika fanlaridan zaruriy bilimlarni egallashda ushbu fan modullari bo’yicha o’zlashtirilgan ko’nikma va malakalar muhim ahamiyat kasb etadi.

## **II. O‘quv fanining maqsad va vazifalari**

Mazkur fanning maqsadi talabalarga tilning og’zaki va yozma shakllarini integrallashgan holda o’rgatish, ularning turli kontekstlardagi muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan o’rganilayotgan chet tili ko’nikmalari to’g’risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallangan bilim, ko’nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo’llay olishlarini ta’minlashdir. Fanning asosiy vazifasi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga ko’ra talabalarning o’rganilayotgan chet tilini B2 darajada egallashlari uchun zaruriy til ko’nikmalarini integrallashgan tarzda o’rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir.

### **Bakalavr:**

- tanish yoki o’zini qiziqtirgan mavzularda soddarroq gaplar vositasida yuzma-yuz muloqotga erkin kirisha olish, muloqotni samarali davom ettirish va tugallash;
- tinglab tushunishni osonlashtirish uchun talaba turli strategiyalarni qo’llay olish, jumladan, matnning asosiy g’oyasini tushunish, kontekstdagi tayanch so’zlarni anglay olish;
- hissiyotlari va munosabatini tasvirlagan holda ko’rgan-kechirganlarini batafsil bayon qila olish;
- o’rganilayotgan chet tilida to’g’ri va aniq talaffuzda gapira olish;

- tanish mavzulardagi, jumladan kasbga oid mavzulardagi aniq va ravon tuzilgan ma'ruza yoki nutqni tushuna olishi va unga doir savollarga javob bera olish;
- chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko'ra B2 darajada o'zlashtirish;
- o'rganilayotgan chet tilida o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ***bilimiga***;

- turli janrdagi (tele yangiliklar, hikoyalar, telereklamalar, e'lonlar va shu kabi) matnlarni tushunish va muhokama qilish uchun tinglash;
- so'zlashuvchining kayfiyati, ohangi va munosabatini anglay olish;
- birinchi kurs davomida norasmiy va ikkinchi kurs davomida rasmiy ko'rinishdagi muhokamalarda o'z nuqtai nazarini va fikrini bemalol bayon eta olishi va boshqalarning fikrini so'rash;
- o'qish va kasbga oid mavzulardagi aniq va bataysil og'zaki tavsiflarni tushuna olishi va matn tuza olish;
- turli variantlar, sabab, natija, turli situasiyalarning yutuq va kamchiliklarini e'tirof etgan holda o'z nuqtai nazarini ifoda etish ***ko'nikma***;
- turli ijtimoiy kontekstlarda tegishli til vositalaridan o'rinali foydalana olish;
- adabiy (standart) og'zaki tilni shovqin yoki nutq yaxshi eshitilishiga to'sqinlik qilayotgan boshqa tashqi omillar sharoitida ham to'liq tushuna olish;
- adabiy (sandart) tilda olib boriladigan radio va TV dasturlarni (hujjatl filmlar, jonli intervyular, tok-shou, spektakl va aksariyat badiiy filmlar) tushuna olishi va mazmunini qisqacha og'zaki bayon eta olish.
- til ko'nikmalarini takomillashtirish bilan bir qatorda transverbal ko'nikmalarni ham shakllantirish;
  - o'zining til ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini baholay olish va refleksiyalarini qo'llay olish;
  - og'zaki va yozma nutq amaliyoti bo'yicha tasavvur va kompetensiya ***malakasiga ega bo'lishi kerak***.

### **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar)**

#### **1-Modul. Nutq malakalari integrasiyasи**

1-mavzu: Shaxs va shaxsiyat. Talabalar o'z tarjimai hollarini yozadilar. Xorijiy mamlakat fuqarolarining o'zaro salomlashishlari va suhbatga kirishishlari xaqidagi dialoglarni o'qiydilar va o'zbeklarning odatlari bilan taqqoslaydilar.

2-mavzu: Milliy ramzlar va o'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchi mamlakatlar. Talabalar turli milliy ramzlarni muhokama qiladilar. Talabalar

diagramma ko'inishida o'rganilayotgan chet tilida so'zlashuvchi mamlakatlar va O'zbekistonning siyosiy davlat tuzilishini tasvirlaydilar va taqqoslaydilar.

3-mavzu: Oziq-ovqat. Talabalar Venn diagrammasidan foydalangan holda turli mamlakatlarda kim nima yeyishi yoki yemasligi haqidagi ma'lumotlarni keltiradilar va buning sabablarini muhokama qiladilar. Talabalar o'zbek va xorijiy mamlakatlar milliy taomlarini taqqoslaydilar

4-mavzu: Sihat-salomatlik. Talabalar xorijliklarning bardam bo'lish uchun nimalar qilishlari haqidagi tekstni o'qiydilar va o'zbeklarning bu borada nimalar qilishlarini aniqlash maqsadida qiyosiy so'rovnoma o'tkazadilar. Talabalar turli mamlakatlardagi chekishni chegaralovchi tartib-qoidalar haqida ma'lumotlarni to'playdilar va O'zbekistondagi mavjud tartiblar bilan solishtiradilar.

5-mavzu: Oilaviy qadriyatlar. Talabalarga xorijiy mamlakatlar va o'zbeklarning oilalari aks etgan suratlar beriladi va qiyosiy insho yozishlari so'raladi. Talabalar xorijiy mamlakatlarda turli millat vakillaridan tarkib topgan oilalardagi tushunmovchiliklar aks etgan filmni tomosha qiladilar (misol uchun, "Jane Eyre", "Pride and Prejudices", va boshqalar) va ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan yo'llarini muhokama qiladilar

6-mavzu: Ta'lim. Talabalar xorijiy mamlakatdagi sind xonasining suratini muhokama qiladilar va uni o'z sind xonalari (jihozlanishi, parta va stullarning joylashishi) bilan taqqoslaydilar. Talabalar xorijiy mamlakatlarda o'qituvchi – talabalar munosabatlari aks etgan filmni(misol uchun, "Dead Poets", "Society") o'rganilayotgan chet tilida tomosha qiladilar yoki tekstni o'qiydilar va O'zbekistondagi o'qituvchi – talabalar munosabatlari bilan solishtiradilar.

7-mavzu: Shahar va qishloq hayoti. Loyiha ishiga qo'shimcha sifatida talabalar o'z shahar, qishloq yoki viloyatlari haqida sayyoohlarga mo'ljallangan kitob, qo'llanma yoki veb-sahifa yaratadilar. Talabalar turli mamlakatlarda shahar va qishloqlarda yashovchi kishilarning soni aks etgan statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqadilar va muxokama qiladilar.

8-mavzu: Dam olish va sport bilan shug'ullanish. Talabalar birini mashhur o'zbek seriallarini (melodrama janrida) muhokama qiladilar va turli madaniyatlardagi serialarga bo'lgan munosabatlar haqida munozara uyushtiradilar. Talabalarga "Chet ellik mehmonni qaysi sport musobaqasini tomosha qilgani olib borgan bo'lar edingiz va nima uchun?" (misol uchun, kurash yoki futbol) mavzusida topshiriq beriladi.

9-mavzu: Aloqa va texnologiyalar. Talabalar turli mamlakatlardagi telefonda suhbatlashish tartiblari haqidagi ma'lumotlarni to'playdilar. Talabalar o'z veb sahifalari chet elliklarga ham tushunarli va qiziqarli bo'lishi uchun nimalar qilinishi lozimligini muhokama qiladilar.

10-mavzu: O'zbekiston va dunyo. Talabalar O'zbekistonga tashrif buyurgan chet elliklarning taassurotlari haqidagi maqolalarni o'qib, tahlil qiladilar va O'zbekistonga tashrif buyurgan chet elliklarga mo'ljallangan qo'llanma kitob ustida ishlaydilar.

## **2-Modul. O'g'zaki nutq amaliyoti (tinglash va gapirish)**

11-mavzu: Kasb-kor va ishbilarmonlik. Talabalar ishga joylashish haqidagi muammoli vaziyatga yechim izlaydilar va uni kichik sahna ko'rinishida aks ettiradilar, hamda turli mamlakatlardagi biznes etiketi haqidagi matnni o'qib, muhokama qiladilar.

12-mavzu: Atrof-muhit muhofazasi. Talabalar xorijiy mamlakatlarda suvdan foydalanish haqidagi muammoli vaziyatga yechim izlaydilar va O'zbekistondagi suvni ishlatalish borasidagi tejamkorlik masalalarini muhokama qiladilar, hamda quyidagi saytdagi suratlardan foydalanib, xorijiy mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishslash usullari bilan tanishadilar va O'zbekistondagi vaziyat bilan solishtirgan holda muhokama qiladilar.

13-mavzu: Munosabatlar. Talabalar turli mamlakatlardagi ajralishlar soni aks etgan statistik ma'lumotlar bilan tanishadilar va muhokama qiladilar, hamda "Xushfe'llikni biz qanday tushunamiz" mavzusida insho yozadilar.

14-mavzu: Turli madaniyatlararo muloqot. Talabalar turli mamlakatlarga xos, madaniyatlararo tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan hatti-xarakat, imo-ishora yoki jumlalar namunalarini izlab topadilar va ularni darsda rol o'ynash orqali namoyish etadilar, hamda chet mamlakatga o'qishga borgan talaba duch kelgan muammoli vaziyatni talabalar muhokama qiladilar va unga yechim izlaydilar.

15-mavzu: Ommaviy axborot. Talabalar xorijiy mamlakatlar radio dasturi yoki teleko'rsatuvini tomosha qiladilar va uning muqobil o'zbekcha talqinini yaratadilar, hamda xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistondagi gazetalar o'qish odatlarini berilgan suratlar asosida muhokama qiladilar.

16-mavzu. Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar sohasidagi etika masalalari. Talabalar plastik jarrohlik qildirgan shaxslarning suratlarini muhokama qiladilar va bu boradagi turli mamlakatlardagi munosabatlarni tahlil qiladilar, hamda turli mamlakatlardagi geni o'zgartirilgan mahsulotlarning qo'llanilish hollari, sabablari va oqibatlari haqida ma'lumotlar to'playdilar va muhokama qiladilar.

17-mavzu: Ta'lim. Talabalar dunyoning 10 ta reytingi baland universitetlari ro'yxatini muhokama qiladilar va o'z universitetlarini ham ushbu ro'yxatga kirishi uchun nima ishlar qilinishi kerakligi haqida fikr almashadilar, hamda suratlar asosida turli mamlakatlarning maktab formalarini solishtirib, muhokama qiladilar.

18-mavzu: Ijtimoiy masalalar. Talabalar Yevropadagi qariyalar uyi haqidagi maqolani o'qiydilar va sharq mamlakatlaridagi qariyalarga bo'lgan munosabat bilan solishtirib, muhokama qiladilar, hamda turli mamlakatlardagi qonunni buzish hollari va ularga belgilangan jazo haqidagi ma'lumotlarni to'playdilar va muhokama qiladilar.

#### **IV. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Tinglab tushunish bo‘yicha:

Tinglash uchun mo’ljallangan matn turlari:

- dialoglar, suhbatlar;
- telefon orqali muloqot;
- jamoat joylaridagi e'lонлар (masalan, temir yo’л vokzali, aeroportdagi e'lонлар);
  - ko‘rsatmalar, yo’riqnomalar (masalan, auditoriyadagi o’qituvchining ko‘rsatmalari, ovqat tayyorlash, velosipedni (texnika vositalarini) ta’mirlash singari oson ko‘rsatmalar);
  - tele va radio xabarlar, ob-havo ma'lumotlari;
  - monologlar (masalan, prezентasiyalar, nutqlar);
  - tele va radio hujjatli filmlar;
  - badiiy filmlar;
  - qo’shiqlar
  - audio kitoblar va h.k.

Strategiyalar

- matnni tinglab uning asosiy g’oyasini anglay olish;
- matnni tinglab, undagi muayyan ma'lumotni (masalan, sanalar, ismlar) farqlash;
- so’zlashuvchining kayfiyati, hissiyotlari va munosabatini aniqlay olishi;

Og’zaki muloqot (dialog) bo‘yicha:

- turli kommunikativ nutq vaziyatlari (salomlashish, kechirim so’rash, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish va h.k.) ni to’g’ri o’zlashtirishi;
- o’ziga yoqqan va yoqmagan narsalar, jihatlar haqida fikrini bayon etishi;
- o’zi haqida shaxsiy ma'lumotlarni bera olishi;
- so’zlovchi nutqini tushunganligi yoki yaxshi anglay olmaganligini ifodalashi (masalan, so’zlovchidan gapini yana bir marta takrorlashni, izohlash, savol berish va h.k.);
- muloqotni davom ettira olish;
- intervyu olish va savollarga javob qaytarish;
- tanish mavzularda muhokamalarda qatnashishi;
- navbat bilan muloqotga kirishishi, so’zlovchining nutqini bo’lmasligi yoki bo’lishga to’g’ri kelgan vaziyatlarda muloqotni davom ettirishi;
- muloqotni boshlash va tugallash strategiyalarini egallashi;
- jumlalarni perifraza qilish va qaytadan ta’kidlashi;
- og’zaki muloqotda tegishli milliy-madaniy me’yorlarni (masalan, iltimos va rahmat so’zlarining turli madaniyatlarda ishlatalishi, salomlashish odobi) bilishi va ularni to’g’ri qo’llashi;

- muloqot jarayonida tegishli imo-ishoralardan (masalan, diqqat bilan tinglayotganligini ko'rsatish uchun oldinga sal engashish, tushunayotganligini ifodalash uchun bosh irg'ashi) o'rinli foydalanishi;

## V.Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. "Bizning kitob"(mashhur shaxslar, do'stlar, yoki ota-onalar haqida kitob) (poster shaklidagi prezентasiya)
2. "Birinchi uchrashuvlar"(poster shaklidagi prezентasiya)
3. "Milliy ramzlar" (poster shaklidagi prezентasiya)
4. O'rganilayotgam chet tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning davlat tuzilishi (bilimlar musobaqasi)
5. "Sog'lom ovqatlanishning 10 qoidasi" (qo'llanma)
6. "Paxandalik kitobi" (taomlarning suratlari va tayyorlanish jarayonlari aks etgan kitob)
7. "Qanday qilib sog'lom turmush tarzini olib borish mumkin" (poster shaklidagi prezентasiya)
8. "Qanday qilib chekishni tashlash mumkin" (broshura)
9. "Oilaviy albom" (qisqa film)
10. "Oilaviy qoidalar" (poster shaklidagi prezентasiya)
11. "Mening orzuimdagi maktab" (poster shaklidagi prezентasiya)
12. "O'qituvchilar gallereyasi" (katta hajmli poster)
13. "Shahrimizga hush kelibsiz" (broshura)
14. "Shahar loyihasi" (prezentatsiya)
15. "Melodrama" (syujet yozish)
16. "Turli madaniyatlarda sport" (ma'lumotlar aks etgan poster)
17. "Iste'molchi bayonoti" (uyali telefonlar haqida)
18. "Bizning guruh haqida" (veb-sahifa yoki blog yaratish)
19. "O'zbekistonga xush kelibsiz" (sayyoohlar uchun kitob)
20. "O'zbekistonni kashf qiling" (turizm yarmarkasi)
21. "Intervyular" (so'rovnama asosidagi bayonot)
22. "Biznes etiketi" (tadbirkorlar uchun qo'llanma)
23. "Bizning sayyora" (atrof-muhitni asrash muammolariga bag'ishlangan konferensiya)
24. "Atrof-muhitning ifloslanishi" (poster shaklidagi prezентasiya)
25. "Ajralish" (ajralish sabablari aks etgan kichik drama)
26. "Turli mamlakatlarda xushfe'lllik qanday tushuniladi?" (suratlri prezентasiya)
27. Xatti-harakat va imo-ishoralar (poster shaklidagi prezентasiya)
28. O'zga madaniyatni anglash muammosi (chet mamlakatga o'qishga borgan talabalar uchun qo'llanma)
29. "Internet 10 yildan so'ng" (radio dastur)
30. "Bizning gazeta" (guruh gazetasi)

## **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Miles Craven. Real Listening and Speaking. Darslik. CUP 2008.
2. Mark Nettle. Developing Grammar in Context. Darslik. CUP 2008.
3. Martin Hewings. English Pronunciation in Use Advanced Book. Darslik. CUP 2009.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

4. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
5. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
6. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
7. Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonni
8. Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr
9. Jeremy Harmer. Just. Listening and Speaking. Cambridge 2008.
10. Caroline Becket. Listening 1. Cambridge 2003.
11. Robert Freire, Tamara Jones. Q:Skills for Success. Listening and Speaking. Oxford 2011
12. Diane Larse Freeman. Techniques and principles in language teaching. Oxford 2011

### **Internet saytlarii**

13. [www.teachingenglish.org.uk](http://www.teachingenglish.org.uk)
14. [www.elgazette.com](http://www.elgazette.com)
15. [www.learnenglish.org.uk](http://www.learnenglish.org.uk)
16. [www.educationuk.org](http://www.educationuk.org)
17. [www.bbc.co.uk\worldservice\learningenglish](http://www.bbc.co.uk\worldservice\learningenglish)
18. [www.channel4.com\learning](http://www.channel4.com\learning)
19. [www.better-english.com\exerciselist.htm](http://www.better-english.com\exerciselist.htm)
20. [www.englishclub.com\index.htm](http://www.englishclub.com\index.htm)





